

DILSHOD RAJAB


# BAXSHI BOLA- YAXSHI BOLA



Dilshod Rajab

# **BAXSHI BOLA — YAXSHI BOLA**

*(She'rlar, ertaklar, ssenariylar)*



„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI  
TOSHKENT — 2016

**UO'K: 821.512.133-053.2**

**KBK 84 (50) 7**

**R 17**

Bolalar shoiri Dilshod Rajabning mazkur she'riy to'plamida ona-Vatanga muhabbat, uning ozodligi va baxti uchun jon fido qilish, ota-ona pand-nasihatlariga quloq solish, tabiatni asrash, hayvonot olamini sevish, boshqalarga beminat yordam ko'rsatish, namunali o'qish kabi oliyjanob g'oyalari ilgari surilgan.



## O'ZBEKISTON

Ne-ne ta'rif-tashbeh bitdilar,  
Mangu ilhom, mangu imkonsan.  
Ikki daryo oralig'ida  
Jo'shib yotgan ulkan ummonsan.

Bag'ringni dur-marvarid kabi  
Ezguliklar etmishdir maskan.  
Yomonlig-u yovlar yo'liga  
Ikki daryo ko'ndalang har dam.

Boqib bag'rim to'lur ziyoga,  
Sen ko'zimning oq-qoraligi.  
Alishmasman ikki dunyoga  
Ikki daryo oralig'ini!


## ISHONCH

Bu yurt ertasidan xabar —  
Ko'kda zarrin hilol bo'lgay.  
Yana yashnar dala-dashtlar,  
Havo sof, suv zilol bo'lgay.

Nazar qilgan zamin, yer bu,  
Mudom tinchlik g'amin yer u,  
Kam emas, kamtarin el bu,  
Ki kamtarga kamol bo'lgay.

To'kib ter, tinmagay joni,  
Osmonga ustun xirmoni,  
Ochiq qo'li, dasturxoni,  
Butun noni halol bo'lgay.

Yuksalur kuch olib kunda,  
Oydayin balqar ochunda,  
Bobolar barhayot bunda,  
Bolalar barkamol bo'lgay!



## ISTIQLOL BOLALARI

Istiqoldan bahra olgan,  
Yurt mehrini dilga solgan,  
Shodlik kuyin baland chalgan  
Biz bolalar, biz bolalar —  
Quvnoq o'g'il-qiz bolalar.

Chaqin chaqnar ko'zimizda,  
Olov bor-da ko'ksimizda,  
Yolg'on yo'qdir so'zimizda,  
Biz bolalar, biz bolalar —  
Quvnoq o'g'il-qiz bolalar.

Vatan — ozod, Vatan — obod,  
Kelajakka boramiz shod.  
Shodon avlod — sog'lom avlod  
Biz bolalar, biz bolalar —  
Quvnoq o'g'il-qiz bolalar.

A'lo o'qish — chin ontimiz,  
O'zbek elin quvonchimiz,  
Buyuk Vatan ishonchimiz  
Biz bolalar, biz bolalar —  
Quvnoq o'g'il-qiz bolalar.



## YURT BAYROG'I

Elning erk-u g'ururin —  
Ramzi, baxt charog'i bu.  
Ozod yurt bayrog'i bu,  
Obod yurt bayrog'i bu!

Ulug' bobolar ruhi,  
Shahdi mujassam unda.  
Elim degan erlarning  
Ahdi mujassam unda.

Mustaqillik shukuhi,  
Qadri mujassam unda.  
Ko'zimiz qarog'i bu —  
Ozod yurt bayrog'i bu.

Yuksaklarda hilpirab —  
Porlab turar hamisha.  
Buyuk g'alabalarga  
Chorlab turar hamisha.

Ezgulik mayog'i bu,  
Ozod yurt bayrog'i bu!



## BAXSHI BOLA — YAXSHI BOLA

(*Turkum*)

*Alqissa, baxshi bola, odob-xulqi yaxshi bola, so'zlari  
dil naqshi bola, qo'lga olib sozini, yangratib ovozini,  
shunday bayon etibdi, zavqi-yu dil rozini:*

O'zbek o'g'li bo'laman,  
Kichik bekman, to'raman.  
Elim aytgan o'langa  
Jo'r bo'laman, jo'raman.

Orzudan qanotim bor,  
Dil to'la bayotim bor.  
Elimdan aytar bo'lsam,  
Tilimda novvotim bor.

Bag'ri quyosh, oy bu el,  
Yaxshilikka boy bu el,  
Kafti ochildasturxon,  
Saxiy, hotamtoy bu el.

Qalbi qaynar xumchaday,  
Zavqi qaynab tinmagay,  
Atoyi Xudo, deya  
Mehmonlarin siylagay.



Niyatlari pok — asl,  
Ichda yo‘q kir — qorasi,  
Uning jondan suygani  
Dalasi-yu bolasi.

To‘kib halol terini,  
Yashnatgan yurt-yerini.  
Halol topib yedirib,  
O‘stirar qiz-o‘g‘lini.

Shu el manim, agarda  
Barin yozsam daftarga,  
Quvonchdan qanot qoqib  
Uchadi u kaptarday.

O‘zbek o‘g‘li bo‘laman,  
Kichik bekman, to‘raman.

### **Navro‘zi olam keldi**

Ey baxtiyor bolalar,  
Qalbi yoniq lolalar,  
Siz uchundir qaymoqday  
Quvnoq qo‘shiq-yallalar.

Qo‘lga olib torimni,  
Aytay dilda borimni.  
Nur sochgan bahorim-u  
Gul ochgan diyorimni.

Vatan — obod makondir,  
Erkin, ozod zamondir,  
Elim omon-omondir,  
Yo‘lim quyosh tomondir!

Yaxshilikni o‘ylayin,  
Yaxshilikni so‘ylayin,  
Yomonlarni qo‘yayin,  
Ayyomlarni kuylayin.

Navro‘z keldi olamga,  
Yurt to‘yin to‘y-to‘ylayin.

\* \* \*

Navro‘z keldi — xush keldi,  
Zavqimizga esh keldi.  
Borliq to‘ldi iforga,  
Osmon to‘la qush keldi.

Chug‘ur-chug‘ur navolar,  
Biram mayin havolar.  
Onam kaftin eslatar  
Silab o‘tgan sabolar.

Ko‘k chehrasi ochildi,  
Mehr nuri sochildi.  
Bog‘-bo‘stonlar yashnadi,  
Gul poyandoz tashlandi.

Gulday uchar kapalak,  
Qizlar sochi jamalak.  
Qiqir-qiqir kuladi  
Doshqozonda sumalak.

Sumalakni yalanglar,  
Kamalakka qaranglar —  
Yer-u ko‘kni bog‘lagan  
Nurli ko‘prik bu ranglar.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi  
<https://kitobxon.com/oz/asar/4542> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси  
<https://kitobxon.com/uz/asar/4542> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию  
можно найти на сайте  
<https://kitobxon.com/ru/asar/4542>